



**NAVOIY VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI**
Demografik holat

2022- yil yanvar-iyun

(dastlabki ma'lumotlar)

Doimiy aholi soni

Navoiy viloyati doimiy aholisi soni 2022- yil 1- iyul holatiga 1 044,0 ming kishini tashkil etib, yil boshidan 10,2 ming kishiga yoki 1,0 % ga o'sgan. Jumladan, shahar aholisi soni 510,8 ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi 48,9 %), qishloq aholisi soni 533,2 ming kishini (51,1 %) tashkil etdi.

E'tibor bering:

2022- yil yanvar-iyun


- Aholi soni **10 192 kishiga** ko'paydi.
- Tirik tug'ilganlar soni **12 151 nafarni** tashkil etdi.
- **1 915 nafar** vafot etganlar qayd etildi.
- FHDYO bo'limlarida **3 039 nafar nikoh** va **720 nafar ajralishlar** ro'yxatga olindi.

**Navoiy viloyati aholisining umumiyo'sishi
(2022- yil yanvar-iyun oylarida)**

**Tirik tug'ilganlar
12,2 ming bola**



**Ko'chib kelganlar
4,6 ming kishi**




Hududlar kesimida doimiy aholi sonining taqsimlanishi

Viloyat hududlari kesimida tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, **2022- yil 1- iyul holatiga eng ko'p aholi soni Xatirchi tumanida 207,6 ming kishini** (viloyat aholisi sonidagi ulushi 19,9 %) va Qiziltepa tumanida 157,8 ming kishini yoki (15,1 %), aksincha eng kam aholi soni G'ozg'on shahrida 9,0 ming kishini yoki jami viloyat aholisining (0,9 %) tashkil etdi.

Hududlar kesimida aholining eng yuqori o'sish sur'ati **2021- yilning yanvar-iyuniga** nisbatan Navoiy shahrida 103,3 % ni, Karmana tumanida 103,0 % ni, Tomdi tumanida 102,2 % ni, Uchquduq va Xatirchi tumanlarida 102,0 % ni, Navbahor tumanida 101,8 % ni tashkil etdi.



***Hududlar kesimida doimiy aholi sonining taqsimlanishi
(2022- yil 1- iyul holatiga, ming kishi)***




**Doimiy aholi sonida qishloq va shahar joylardagi aholi soni.
(2022- yil 1- iyul holatiga)**

	<i>Jami aholi</i>	<i>Erkaklar</i>	<i>Ayollar</i>	<i>Shahar aholisি</i>	<i>Qishloq aholisি</i>	<i>1 kv. km ga to'g'ri keladiganlar soni</i>
Viloyat bo'yicha:	1 044 049	529 148	514 901	510 820	533 229	9,4
<i>shaharlar:</i>						
Navoiy	153 247	76 847	76 400	153 247	-	2974,0
Zarafshon	86 046	45 018	41 028	86 046	-	4 036,0
G'ozg'on	8 995	4 822	4 173	8 995	-	15,1
<i>tumanlar:</i>						
Karmana	133 997	66 442	67 555	43 772	90 225	140,7
Konimex	37 062	19 513	17 549	16 942	20 120	4,0
Qiziltepa	157 770	79 738	78 032	49 456	108 314	72,2
Navbahor	117 727	59 729	57 998	16 737	100 990	75,0
Nurota	87 192	44 766	42 426	49 436	37 756	14,7
Tomdi	15 676	8 003	7 673	5 100	10 576	0,4
Uchquduq	38 738	19 100	19 638	33 954	4 784	0,8
Xatirchi	207 599	105 170	102 429	47 135	160 464	146,4


Viloyatda hududlar kesimida tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2022- yil 1- iyul holatiga aholining eng ko'p shahar joylaridagi ulushi viloyatning shahar aholisiga nisbatan Qiziltepa va Nurota tumanlarida 9,7 % ni, Xatirchi tumanida 9,2 % ni, Karmana tumanida 8,6 % ni va Uchquduq tumanida 6,6 % ni, aksincha eng kam shahar aholi sonining ulushi Konimex va Navbahor tumanlarida 3,3 % ni va Tomdi tumanida 1,0 % ni tashkil etdi.

Doimiy aholi sonida qishloq va shahar joylardagi aholi sonining ulushi (2022- yil 1- iyul holatiga, foizda)




**Aholining tabiiy harakati
yanvar-iyun holatiga**

	2021- yil kishida	2022- yil kishida	o'sish, kamayish	2021- yil har ming kishiga	2022- yil har ming kishiga
<i>Tug'ilganlar</i>	11 761	12 151	390	23,3	23,6
<i>O'lganlar</i>	2 287	1 915	-372	4,5	3,7
<i>Tabiiy o'sish</i>	9 474	10 236	762	18,8	19,9
<i>Nikohlar</i>	3 581	3 039	-542	7,1	5,9
<i>Ajralishlar</i>	645	720	75	1,3	1,4



Navoiy viloyati bo'yicha tirik tug'ilganlar soni (yanvar-iyun) yillar, ming kishi

Tug'ilish. 2022- yilning yanvar-iyun oylarida 12 151 nafar bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib (bu yerda va bundan keyin tug'ilganlarga faqat tirik tug'ilganlar inobatga olingan), mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti 23,6 promilleni tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 0,3 promillega oshgan (2021- yilning yanvar-iyun oylarida 23,3 promille bo'lgan).



Tug'ilganlar yanvar-iyun holatiga, (kishida)


	2021- yil	2022- yil promilleda	2022- yil	2022- yil promilleda
Navoiy viloyati	11761	23,3	12151	23,6
Navoiy sh.	1588	21,7	2521	33,5
Zarafshon sh.	885	21,0	971	22,8
G'ozg'on sh.	90	20,6	57	12,8
Karmana t.	1 635	25,5	1 604	24,3
Konimex t.	374	20,8	284	15,5
Qiziltepa t.	1619	21,1	1581	20,3
Navbahor t.	1296	22,7	1228	21,1
Nurota t.	1118	26,4	921	21,4
Tomdi t.	107	14,2	140	18,1
Uchquduq t.	419	22,3	434	22,7
Xatirchi t.	2630	26,2	2410	23,5

Vafot etganlar

2022- yilning yanvar-iyun oylarida 1 915 ta o'lim qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga o'lim koeffitsiyenti 3,7 promilleni tashkil etdi.

Asosiy o'lim sabablari bo'yicha

yanvar – iyun




2022- yilning yanvar – iyun oylarida 93 ta 1 yoshgacha go'daklar o'lim qayd etilgan.

Nikoh. 2022- yilning yanvar-iyun oylarida FHDYO organlari tomonidan 3 039 ta nikoh qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsiyenti 5,9 promilleni tashkil etdi. 2021- yilning mos davriga nisbatan 1,2 promillega kamaygan (2021- yilning yanvar-iyun oylarida 7,1 promille bolgan).




Tuzilgan nikohlar yanvar-iyun holatiga, (birlik)



Nikohdan ajralishlar. 2022- yilning yanvar-iyun oylarida FHDYO organlari tomonidan 720 ta nikohdan ajralganligi qayd etilgan bo'lib, 1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralganlik koeffitsiyenti 1,4 promilleni tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan 0,1 promillega ko'paygan (2021- yilning yanvar-iyun oylarida 1,3 promille bo'lgan).



Nikohdan ajralganlar yanvar-iyun holatiga, (birlik)



MIGRATSİYA

2022- yil yanvar-iyun oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar soni 4 561 kishini tashkil etgan bo'lib 1 000 aholiga nisbatan ko'chib kelganlar koeffitsiyenti 8,9 promilleni tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan minus 0,7 promillega kamaygan (2021- yilning yanvar-iyun oylarida 9,6 promille bo'lgan).

2022- yil yanvar-iyun oylarida viloyat bo'yicha ko'chib ketganlar soni esa 4 605 kishini tashkil etgan bo'lib 1 000 aholiga nisbatan ko'chib ketganlar koeffitsiyenti 8,9 promilleni tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan minus 2,4 promillega kamaygan (2021- yilning yanvar-iyun oylarida 11,3 promille bo'lgan).

Migratsiya saldosi minus 44 kishi bo'lib, 2021- yilning o'tgan shu davrida minus 890 kishi bo'lgan.




	2021- yil yanvar-iyun	2022- yil yanvar-iyun
--	----------------------------------	----------------------------------

<i>Ko'chib kelganlar</i>	4 833	4 561
--------------------------	-------	-------


<i>Ko'chib ketganlar</i>	5 723	4 605
--------------------------	-------	-------

<i>Migratsiya saldosi</i>	-890	-44
---------------------------	------	-----

Ko'chib kelganlar yanvar-iyun holatiga, (kishida)



Ko'chib ketganlar yanvar-iyun holatiga, (kishida)



Navoiy viloyati statistika boshqarmasi
Demografiya va mehnat statistikasi bo'limi
Tel.:(79) 223-07-41